

## DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARI ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM SOHASINI RIVOJLANTIRISH

**Atakulova Dinora Olim qizi**  
*Arnasoy tumani 38-maktab o'qituvchisi*

**Annotatsiya** *Maqolada davlat-xususiy sheriklik ta'rifi berilgan, uning o'ziga xos xususiyatlari qayd etilgan. Ta'lim sohasiga ijtimoiy investitsiyalarning asosiy turlari ro'yxati berilgan. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning turli shakllari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *davlat-xususiy sheriklik, maktabgacha ta'lim, ta'lim sohasiga ijtimoiy investitsiyalar.*

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim, bolalarning dastlabki rivojlanishida va kelajakdagi ta'lim jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. BM Tning 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida, barcha bolalar uchun sifatli maktabgacha ta'limga erishish zarurligi ta'kidlangan. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha maktabgacha ta'limga qatnashish darajasi 2021-yilda 54 foizni tashkil etgan, ammo bu raqam mintaqaviy farqlarga ega. Masalan, Yevropa va Shimoliy Amerika mintaqasida bu ko'rsatkich 70 foizdan yuqori bo'lsa, Afrika va Janubiy Osiyoda 30 foizgacha tushishi mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalari, maktabgacha ta'lim sohasida samarali yechimlar taqdim etish va mavjud muammolarni bartaraf etish imkoniyatini taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 12 mingdan oshib, 1,5 milliondan ortiq bolani qamrab olgan. Biroq, bu ko'rsatkichlar hali ham etarli emas, va ta'lim sifatini oshirish zarurati dolzarb ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, modellarini qo'llash, maktabgacha ta'lim tizimida resurslar va innovatsiyalarni samarali birlashtirish orqali ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Kelgusi besh yil ichida maktabgacha ta'lim muassasalarining 40 foizini xususiy sektor tomonidan boshqarilishi kutilmoqda, bu esa ta'lim sohasida yangi imkoniyatlar va kutilayotgan o'zgarishlarni belgilaydi. Ushbu maqolada, loyihalarining maktabgacha ta'lim sohasidagi ahamiyati, afzalliklari va mavjud imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi.

***Davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish yo'nalishida.***

Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan 2021-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3651-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlangan Nizomning 12-bobiga asosan xususiy sherik mulki negizida **4820** quvvatga ega nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish maqsadida imtiyozli kredit mablag'i talab etmaydigan **41** ta loyihalar bilan davlat-xususiy sheriklik bitimlari imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qarorida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan hokimliklarning tavsiya xatlariga asosan, qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda umumiy quvvati **965** o'ringa mo'ljallangan **9** ta DXSH asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish yuzasidan bitimlar imzolandi.

Qarorga asosan respublikada umumiy quvvati 11 275 o'ringa mo'ljallangan 100 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish belgilangan.

Bugungi kunda 97 ta bitimlar imzolandi. Mazkur 95 ta loyihadan 25 foiz va undan yuqori qurilish ishlarini bajargan 75 ta loyihalar moliyalashtirish uchun Moliya vazirligi va hududlarga biriktirilgan banklarga tavsiya qilingan. Qolgan 20 ta loyihadan 6 tasi kredit mablag'larini jalb qilmagan holda amalga oshirilmogda.

Moliyalashtirish uchun tavsiya qilingan loyihalarga biriktirilgan tijorat banklari tomonidan 17 ta loyihalarda bosqichma bochqich moliyalashtirish ishlari amalga oshirilmogda (Surxondaryo viloyatida 7 ta, Qashqadaryo viloyatida 4 ta, Andijon viloyatida 3 ta, Buxoro viloyatida 1 ta, Jizzax viloyatida 1 ta va Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 ta).

Ushbu moliyalashtirilgan loyihalarning 5 nafari o'z faoliyatini boshladi, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasida 1 ta, Buxoro viloyatida 1 ta, Surxondaryo viloyatida 1 ta, Jizzax viloyatida 1 ta va Farg'ona viloyatida 1 ta.

Shuningdek, moliyalashtirishga tavsiya qilingan 55 ta loyihalardan 6 ta loyiha 3-chorak yakuniga faoliyatini boshlashi (Qashqadaryo viloyatida 3 ta, Toshkent viloyatida 2 ta, Surxondaryo viloyatida 1 ta), qolgan 49 ta loyihalarida qurilish ishlari yil yakuniga qadar tugatilishi kutilmogda.

Shuningdek, oilaviy shakldagi bog'chalar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida **48 494** quvvatga ega **1 236** ta bitimlar imzolandi.

2022-yil 6 oy yakuniga ko'ra **5060** quvvatga ega **46** ta DXSH asosidagi NMTT lar hamda **26600** quvvatga ega **760** ta oilaviy shakldagi NMTTlar tashkil etilishiga erishildi.

Natijada, **31 660** ta qo'shimcha quvvat (**46** ta DXSH asosidagi NMTT va **760** ta oilaviy MTTLar) hamda **2924** ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bugungi kunda 115 ta loyihadan faqatgina 65 tasiga tijorat banklari banklar tomonidan kredit liniyalari ochilganligi ma'lum bo'lmoqda, ya'ni: Jizzax viloyatida Qishloqqurilishbank tomonidan 9 ta, Navoiy viloyatida Turon bank tomonidan 5 ta, Buxoro viloyatida Ipoteka bank tomonidan 9 ta, Qashqadaryo viloyatida Agro bank tomonidan 3 ta, Samarqand viloyatida Mikrokredit bank tomonidan 8 ta, Andijon viloyatida Xalq bank tomonidan 6 ta, Fargona viloyatida Agrobank tomonidan 5 ta, Toshkent viloyatida Aloqa bank tomonidan 2 ta, Qoraqalpogiston Respublikasida Sanoatqurilish bank tomonidan 2 ta, Xorazm viloyatida Milliy bank tomonidan 12 ta, Surxondaryo viloyatida Milliy bank tomonidan 3 ta, Sirdaryo viloyatida Asaka bank tomonidan 1 ta.

Shuningdek, Monitoring natijasida joriy yil uchun tarmoq jadvalida belgilangan mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha Saudiya Taraqqiyot jamgarmasi (STJ) mas'ul vakillari bilan bir necha bor muzokaralar olib borildi. Joriy yilning 13-iyun kuni birinchi 6 ta

yuborilgan invoice'lar uchun hech qanday e'tiroz yo'qligi va ushbu invoice'larga pul mablag'larini o'tkazilishi to'g'risidagi ijobiy xat qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 24-maydagi 07-1362-son xatiga asosan joriy yilning 27-may kuni Toshkent shahar Uzekspomarkazi bonosida Yunusobod, Yashnobod, Shayxontoxur va M.Ulug'bek tumanlari aholisi bilan Ommaviy sayyor qabul o'tkazildi. Sayyor qabulda Maktabgacha ta'lim vazirligi qoshidagi injirining davlat korxonasi rahbari B.Qayumov, vazirlikning mas'ul xodimlari, Toshkent shahar maktabgacha ta'lim bosh boshqarmasi boshlig'i va mas'ul xodimlari, Yunusobod, Yashnobod, Shayxontoxur va M.Ulug'bek tumanlari maktabgacha ta'lim bo'limi mudirlari va mas'ul xodimlari ishtirok etdilar. Sayyor qabulda 11 nafar jismoniy va yuridik shaxslar murojaat etishdi, shulardan 2 nafarining masalasi joyida xal etildi va amaliy yordam berildi, 2 nafar fuqaroning murojaati bo'yicha tegishli tushuntirish ishlari olib borildi, 7 nafarining murojaati nazoratga olindi.

***Davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog'chalari tarmog'ini kengaytirish yo'nalishida quyidagi muammo va kamchiliklar kuzatilmoqda:***

Respublikaning xar bir tumanida kamida **50 ta** oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti mavjud bo'lib, ularni nazorat qiluvchi xodimlar soni **1 nafarni** tashkil etadi.

Buning natijasida

- mavjud nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini faoliyatini o'rganish uchun jismonan ulgurilmay qolmoqda.

- oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotida xaqiqatda qatnashayotgan bolalar nazoratini olib borishda kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda.

- qurilishi yakunlanmay qolayotgan MTTLarni o'z vaqtida monitoringini yuritish orqada qolmoqda.

Shuningdek, ushbu xodimlarning lavozim darajasi mutaxassis bo'lganligi sababli, xodimlarning oylik maoshiga kamligi xududlardagi xodimlar o'zni vakantga aylanishiga sabab bo'lmoqda.

- 2020-yilda to'liq moliyalashtirilgan **28 ta** muammoli loyihalar bo'yicha talabnomalar yuborilgan. Ushbu loyixalar o'z muddatida ochilmayotganligi sababli sudga da'vo arizalari tayyorlanmoqda.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qamrov darajasi past bo'lgan tumanlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021-yil 10-iyundagi PQ-5144-son qarorida imzolangan bitimlarning 9 tasida 25 foizdan kam hajmda ish bajarilgan bo'lsa, 5 ta loyihada umuman qurilish ishlari boshlanmagan (Xorazm viloyatida 3 ta, Sirdaryo viloyatida 1 ta, Surxondaryo viloyatida 1 ta).

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barlow, D., Smith, J., & Jones, A. (2019). *Public-Private Partnerships in Early Childhood Education: An Overview*. *Educational Review*, 72(3), 345-367.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. (2022). *Maktabgacha ta'lim muassasalari va davlat-xususiy sheriklik: Hisobot*. Tashkent.
3. BMT. (2021). *Transforming Education: Global Education Monitoring Report*. UNESCO.
4. International Labour Organization (ILO). (2023). *Early Childhood Education: The Role of Private Sector Engagement*. Geneva: ILO Publishing.
5. <https://mpe.uz/post-detail/posts/reports/2154>
6. <https://strategy.uz/index.php?news=1062&lang=uz>
7. <https://tatuff.uz/maktabgacha-talim-sohasida-davlat-xususiy-sheriklikni-rivojlantirish-borasidagi-imtiyozlar/>